



**NEMIS TILI LEKSIKASINING TARIXIY SHAKLLANISHIDA  
LOTIN VA GREK O'ZLASHMALARINING AHAMIYATI**

**Mahmudova Marjona Nosir qizi**

O'zMU 4-bosqich talabasi

E-Mail: [Mahmudovamarjona544@gmail.com](mailto:Mahmudovamarjona544@gmail.com)

Ilmiy rahbar: **Umarova Zamira**

O'zMU Nemis tili kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada nemis tili leksikasining tarixiy rivojlanishi va uning shakllanishida lotin hamda grek tillaridan o'zlashgan so'zlarning o'rnini tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'zlashma so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan tarixiy, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar yoritiladi. Shuningdek, o'zlashmalar turli tarixiy bosqichlarda - Rim imperiyasi davri, xristianlashuv jarayoni hamda Gumanizm va Uyg'onish davrlarida nemis tiliga kirib kelgani ko'rsatiladi. Maqolada lotin va grek tillarining nemis tili leksik tizimini boyitishdagi roli hamda ularning ilmiy, diniy va madaniy terminologiya shakllanishiga ta'siri ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Nemis tili, leksik qatlam, o'zlashma so'zlar, lotin tili, grek tili, tarixiy taraqqiyot, xristianlashuv, Rim imperiyasi, Gumanizm davri, Uyg'onish davri, madaniy aloqalar, ijtimoiy omillar, iqtisodiy rivojlanish, lingvistik integratsiya.

**Annotation:** This article analyzes the historical development of the German lexicon and the role of Latin and Greek loanwords in its formation. It examines the historical, social, cultural, and economic factors that contributed to the emergence of borrowings. The study also highlights the main historical stages of lexical borrowing, including the Roman Empire period, Christianization, and the Humanism and Renaissance periods. Furthermore, the



article explores the contribution of Latin and Greek languages to the enrichment of the German vocabulary, particularly in scientific, religious, and cultural terminology.

**Keywords:** German language, lexical layer, loanwords, Latin language, Greek language, historical development, Christianization, Roman Empire, Humanism period, Renaissance period, cultural contacts, social factors, economic development, linguistic integration.

Hech bir tilning so‘z qatlami faqat sof, ya'ni aynan mana shu tildan kelib chiqqan so‘zlardan iborat bo‘lmaydi. Nemis tili ham bundan mustasno emas. Uning tarixiy rivojlanish jarayonida leksik qatlami turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar hisobiga shakllanib, asta-sekin boyib borgan. Bu o‘zlashmalar turli tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida yuzaga kelgan. Ayniqsa, lotin va grek tillaridan kirib kelgan so‘zlar nemis tili leksikasining muhim qismini tashkil etadi. Shu sababli, mazkur o‘zlashmalarning o‘rni va ahamiyatini alohida ta’kidlab o’tish joizdir. Hozirgi Germaniya hududi german qabilalari kelishidan avval turli etnik guruhlar tomonidan egallangan bo‘lib, ular orasida kelt qabilalari ham mavjud bo‘lgan. Bu haqdagi ma’lumotlar Fridrix Engelsning “Zur Geschichte der Urgermanen” (Qadimgi nemislar tarixi) asarida ham qayd etilgan. Tarixiy taraqqiyot va etnik birlashuv jarayonida turli qabilalar o‘zaro aralashib ketgan. Natijada german leksik qatlamiga kelt lahjalariga oid ayrim so‘zlar ham kirib kelgan.[1, 92]

Hech bir hodisa o‘z-o‘zidan yuzaga kelmagani kabi, o‘zlashma so‘zlarning paydo bo‘lishi ham jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liqdir. Bu jarayonga ta’sir etuvchi bir qator muhim omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin. *Birinchi*dan, diniy va madaniy ta’sirlar muhim rol o‘ynaydi. Xristianlashuv jarayoni bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Xristian dinining keng tarqalishi natijasida nemis tiliga grek va lotin tillaridan ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. *Ikkinchi*dan, iqtisodiy rivojlanish va



savdo-sotiq aloqalarining kengayishi ham o'zlashmalarni kuchaytirgan. Bu jarayonda turli xalqlar o'rtasidagi aloqalar natijasida chet tillardan ko'plab leksik birliklar o'zlashtirilgan. *Uchinchidan*, ijtimoiy tabaqalanish omili ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim ijtimoiy qatlam vakillari o'z mavqeini ko'rsatish yoki ajralib turish maqsadida chet tillarga oid so'zlardan foydalanishga intilgan. Masalan, XVI–XVII asrlarda fransuz tiliga bo'lgan qiziqish ortishi natijasida nemis tiliga ko'plab fransuzcha so'zlar kirib kelgan. *To'rtinchidan*, turmush tarzi va moda omili ham o'zlashmalarga ta'sir ko'rsatgan. XIX–XX asrlarda ingliz madaniyatining, ayniqsa sport va kiyim-kechak sohasidagi ustunligi natijasida ingliz tiliga oid so'zlar boshqa tillar qatori nemis tiliga ham keng kirib kelgan.[2, 68]

Nemis tilining lug'at tizimi uzoq tarixiy jarayonlar davomida shakllangan bo'lib, uning asosida bir nechta muhim manbalar yotadi. Avvalo, bu tilning eng qadimgi qatlamini hind-yevropa tillaridan meros bo'lib qolgan leksik birliklar tashkil etadi. Shuningdek, umumgerman til birligi doirasida shakllangan so'zlar ham nemis leksikasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, tarixning turli bosqichlarida boshqa tillar bilan aloqalar natijasida kirib kelgan o'zlashma so'zlar ham lug'at boyligining sezilarli qismini tashkil etadi. Tadqiqotchilar, xususan, A. Schmidtning fikricha, zamonaviy nemis tilining asosiy lug'at fondining taxminan chorak qismi hind-yevropa kelib chiqishiga ega. Bu esa nemis tilining ildizlari nihoyatda qadimiy lingvistik qatlamlarga borib taqalishini yana bir bor tasdiqlaydi.[3, 112]

Bosmaxonalarning paydo bo'lishi, Reformatsiya davri hamda Injilning tarjima qilinishi kabi tarixiy voqealar lotin tilining nufuziga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Shunga qaramay, XVI asrda chop etilgan nemis tilidagi kitoblarning katta qismi hanuz lotin tilida bo'lgan. Bu holat hatto XVIII asrda ham o'z ahamiyatini to'liq yo'qotmagan. Nemis tili esa faqat XVII asr oxirlaridan boshlab universitetlarda o'qitish tili sifatida asta-sekin qo'llanila



boshlagan. Biroq, shunga qaramay, ayrim ilmiy an'analar saqlanib qolib, XIX asrgacha dissertatsiyalarni lotin tilida yozish talabi mavjud bo'lib qolgan.

Lotin tilining ta'siri natijasida nemis tilida o'ziga xos leksik qatlam shakllandi. Nemis grammatik tizimi saqlangan holda, asosan lotin tiliga mansub bo'lgan ilmiy terminlar keng qo'llanila boshladi. Ayniqsa, bu jarayon gumanizm davrida yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Shu davrda lotin tilidan huquqiy va ma'muriy sohalarga oid ko'plab atamalar nemis tiliga kirib keldi. Universität, Professor, Kollege, Humanität, Text, diskutieren, demonstrieren kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi. Lotin tili bilan bir qatorda yunon tili ham nemis leksikasida muhim o'rin egalladi. *Akademie - akademiya, Gymnasium - gimnaziya, Technik - texnika, Horizont - gorizont* kabi birliklar nemis tilining ilmiy va madaniy lug'at boyligini yanada boyitdi. Klassik tillarning ta'siri shu qadar kuchli bo'ldiki, hozirgi kunda ham turli rivojlangan sohalar leksikasida lotin va grek tillaridan o'zlashgan so'zlar keng qo'llanilmoqda.[4, 79]

Tilshunoslar Stepanova va Chernishovaning "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache" (Hozirgi davr nemis tili leksikologiyasi) asarida qayd etilishicha, nemis tilining leksik tizimida iqtisodiy va madaniy aloqalar natijasida rivojlangan jamiyatlar bilan o'zaro munosabatlar orqali shakllangan predmet va so'z o'zlashuvlari (Sach- und Wortentlehnungen) muhim o'rin egallaydi. Bu o'zlashmalar, asosan, yuqori darajada taraqqiy etgan jamiyatlarda paydo bo'lgan yangi tushunchalarni ifodalash ehtiyoji bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. G'arbiy german tillarida lotin tilidan kirgan eng qadimgi o'zlashmalar Rim davriga taalluqli bo'lib, ularni aniq kuzatish mumkin.

German qabilalari Rim imperiyasi bilan ilk aloqaga kirishgan davrda ular hali urug'-qabila tuzumida yashagan, rimliklar esa ijtimoiy taraqqiyotning nisbatan yuqori bosqichiga yetgan edi. Shu sababli o'sha davrda o'zlashtirilgan so'zlar asosan moddiy madaniyat, qurilish va texnika sohalari bilan bog'liq bo'lgan. Shu bilan birga, german davridayoq o'zlashmalar faqat moddiy



madaniyat bilan cheklanmay, boshqaruv, huquq, savdo va kundalik turmush kabi boshqa sohalarni ham qamrab olgan.

German qabilalarining xristianlashuvi bilan bog'liq holda, V asrdan boshlab, ayniqsa VII–VIII asrlarda, nemis tiliga lotin va yunon tillaridan katta miqdorda leksik o'zlashmalar kirib kelgan. Bu o'zlashmalar, avvalo, diniy tasavvurlar va cherkov marosimlariga oid tushunchalarni ifodalashga xizmat qilgan. Xristian dinining yoyilishi natijasida nemis tiliga kirib kelgan o'zlashma so'zlar asosan cherkov va monastir hayotiga oid bo'lgan. Bu birliklar diniy tasavvurlar, ibodat marosimlari hamda ruhoniyluk faoliyati bilan bog'liq tushunchalarni ifodalagan. Masalan, *Kloster – Monastir (qadimgi yuqori nemischa klôstar, lotincha claustrum)*, *Münster-(ahd.Munistri, lotincha monasterium)*, *Mönch – rohib (ahd. Munih(h), lotincha monachus)*, *Nonne (ahd. Nunna, lotincha nonna)*, *Messe (ahd. Missa, lotincha missa)*, *Kreuz – xoch (ahd. Krûzi, lotincha crux)*, *shuningdek opfern – qurbonlik qilmoq (ahd. Opfarôn, lotincha operari)* kabi birliklar shular jumlasidandir.[1, 95]

Rimliklar bilan dastlabki aloqalar qurolli to'qnashuvlar orqali yuzaga kelgan bo'lsa-da, keyinchalik bu munosabatlar tinch shaklga o'tib, avvalo savdo aloqalari bilan davom etgan. Natijada Germaniya hududiga turli xo'jalik va uy-ro'zg'or buyumlari kirib kelgan. Ushbu buyumlar bilan bir qatorda ularning nomlari, ya'ni lotincha atamalar ham nemis tiliga o'zlashgan. Masalan, harbiy va yo'l qurilishi sohasidan *Straße – ko'cha (spätlat. (via) strata “gepflasterter Weg”)*, qurilish texnikasidan *Mauer – devor (mûrus)*, *Keller (cellarium)*, *Fenster – deraza (fenestra)*, *Kalk – bo'r (calx, Akk. Calcem)*, *Kammer - kamera (camera)*; dehqonchilik, bog'dorchilik hamda uzumchilik sohaslaridan *Frucht – meva (fructus)*, *Flegel (flagellum)*, *Kohl – ko'mir (caulis)*, *Kirsche – cherkov (ceresia)* kabi birliklarni keltirish mumkin. Shuningdek, german davridayoq predmet va so'z o'zlashuvi (*Sach- und Wortentlehnungen*) nafaqat moddiy madaniyat leksika bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv,



huquq, savdo va kundalik turmush sohalariga oid ko'plab boshqa sohalar leksikasini ham qamrab olgan.[5, 142]

Shuningdek, lotin tili XVIII asrgacha ilm-fanning asosiy rasmiy tili bo'lib qolgan. Hozirgi zamon nemis tilida ham keyingi davrlarga oid ko'plab lotincha o'zlashmalar uchraydi. Masalan, *Aula -zal, Auditorium – auditoriya, Autor – muallif, Autorität – hokimiyat, Abiturient – abituriyent, Glossar – lug'at, Kommentar - izoh, Disziplin - intizom, Examen – imtihon, Exkursion – ekskursiya, Zensur -senzura* kabi so'zlar shular jumlasidandir. Rim huquqiga oid qoidalarning Germaniyada qabul qilinishi ham lotincha leksikaning, ayniqsa yuridik terminologiyaning keng kirib kelishiga sabab bo'lgan. *Prozess - jarayon, Klient - mijoz, Justiz-adolat, Jura - yuridik, Appellation – apellyatsiya, Magistrat - magistr, Advokat – advokat* kabi birliklar bunga misol bo'la oladi. XIV asrdan boshlab lotin tilining ta'siri asta-sekin kamayishni boshlagan. Shunga qaramay, nemis tiliga lotin tilidan so'zlarning kirib kelishi bir martalik hodisa bo'lmay, balki turli tarixiy davrlarda bosqichma-bosqich amalga oshgan uzluksiz jarayon ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Ushbu jarayon quyidagi bir necha tarixiy bosqichlar asosida amalga oshgan. Birinchi bosqich Rim imperiyasi hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Ikkinchi bosqich V–IX asrlarni o'z ichiga olib, xristian dinining keng tarqalishi bilan bog'liq. Uchinchi bosqich esa Gumanizm va Uyg'onish davri madaniyati bilan uzviy aloqador hisoblanadi.[6, 108]

Nemis lug'at boyligining rivojlanishida yunon tilining ta'siri ham muhim o'rin tutadi. Yunoncha so'zlar asosan lotin tili vositasida nemis tiliga kirib kelgan bo'lib, ular ko'proq din, ta'lim va ilm-fan sohalariga oid bo'lgan. *Bibliothek – kutubxona, Chor - xor, Charakter - xarakter, Kirche - cherkov, Kalender – kalendar* kabi so'zlar bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, ilmiy terminologiyaning katta qismi ham yunon tiliga borib taqaladi. *Metapher- metafora, Metonymie- metanamiya, Euphemismus - evfemizm, Homonymie -*



*omonim, Synonyme - sinonim, Antonymie - antonim, Idiom - idioma, Hyperbel – kattalashtirish, Litotes – litota* kabi atamalar shular jumlasidandir.

Gumanizm davrining muhim xususiyatlaridan biri nemis tilidagi o'zlashma so'zlar tarkibida yunon tilidan kelib chiqqan birliklar ulushining ortishidir. Bu davrda *Akademie-akademiya, Bibliothek-kutubxona, Gymnasium–gimnaziya, Pädagoge-pedagog, Apotheke-dorixona, Technik-texnika, Horizont-ufq, erotisch-erotik, panisch–vahimali* kabi so'zlar keng qo'llanila boshlagan. Shu bilan birga, bu birliklarning ayrimlari nemis tiliga to'g'ridan-to'g'ri yunon tilidan emas, balki lotin tilidagi yozma manbalar orqali kirib kelgan bo'lishi ham mumkin.

Lotin va yunon kabi klassik tillarning ta'siri nemis tilida shu darajada chuqur ildiz otganki, ularning asosida bugungi kunda ham zamonaviy sivilizatsiyaning turli sohalariga oid yangi so'zlar yasashda davom etmoqda. *Elektrizität–elektr energiyasi, Photographie–fotografiya, Graphologie–grafika, Germanist-germanistika, Sozialist-sotsial, Materialismus-materializm, Antifaschist– antifashistik* kabi birliklar klassik tillar negizida shakllangan leksik qatlamga mansubdir. Umuman olganda, nemis tilining lug'at tarkibida kuzatilgan ushbu jarayon boshqa G'arbiy Yevropa madaniy tillari rivoji bilan uyg'un holda kechgan. Lotin va yunon tillari asosidagi so'z yasalishi hamda o'zlashmalar zamonaviy Yevropa tillarining deyarli barchasiga xos umumiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.[2, 95]

Xulosa qilib aytganda, nemis tili leksik tizimining shakllanishi va rivojlanishi uzoq tarixiy jarayonlar natijasi bo'lib, u turli tillar bilan o'zaro aloqalar asosida boyib borgan. Ayniqsa, lotin va yunon tillaridan o'zlashgan birliklar nemis tilining ilmiy, diniy, madaniy va ijtimoiy leksikasida muhim o'rin egallaydi. Ushbu o'zlashmalar turli tarixiy bosqichlarda ya'ni, Rim imperiyasi davri, xristianlashuv jarayoni hamda Gumanizm va Uyg'onish davrlarida izchil ravishda til tizimiga kirib borgan. Shuningdek, o'zlashma so'zlarning paydo bo'lishi jamiyatdagi tarixiy, madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy



o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq ekani yaqqol namoyon bo'ladi. Nemis tilining leksik boyligi nafaqat ichki rivojlanish, balki tashqi lingvistik ta'sirlar natijasida shakllangan murakkab tizim ekanini ko'rsatadi. Bu jarayon esa Yevropa tillari o'rtasidagi umumiy madaniy va lingvistik uyg'unlikning yorqin ifodasidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie. Ленинград: Невский, 1970
2. Arakeljan S. Lexikologie des Deutschen. Jerewan: Verlag der Universität Jerewan, 2017
3. Schmidt A. Deutsche Wortkunde. Leipzig: Meyer, 1949
4. Polenz P. Geschichte der deutschen Sprache. Berlin: De Gruyter, 2009
5. Stepanova M. D., Černyševa I. I. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. М. Издательский центр: Академия, 2003
6. Ольшанский И. Г., Гусева А. Е., Лексикология современный немецкий язык. Москва: Academia, 2005